

## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA MULOQOTCHANLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Muladjanova Gulchexraxon Abidjanovna  
ADPI Pedagogika va psixologiya kafedrasini o‘qituvchisi  
gulchehramullajonova@gmail.com  
Abdumuxtorova Rushana Komiljon qizi  
Andijon davlat pedagogika instituti  
Pedagogika yo‘nalishi 301-guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19451578>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy axborot jamiyatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda raqamli pedagogika vositalarining o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida kichik maktab yoshidagi bolalarning muloqotchanlik xususiyatlari va ularni interaktiv ta’lim platformalari orqali faollashtirishning metodik jihatlari yoritilgan. Shuningdek, dars jarayonida gamifikatsiya va multimedia vositalarining samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Raqamli pedagogika, kommunikativ ko‘nikmalar, Alfa avlodi, interaktiv metodlar, AKT, planshetli ta’lim, multimedia taqdimotlar, muloqot madaniyati.

**Аннотация:** В данной статье анализируется роль цифровых педагогических инструментов в формировании коммуникативных компетенций учащихся начальных классов в современном информационном обществе. В ходе исследования освещены особенности общения детей «поколения Альфа» и методические аспекты их активации через интерактивные обучающие платформы. Также научно обоснована эффективность геймификации и мультимедийных средств в учебном процессе.

**Ключевые слова:** цифровая педагогика, коммуникативные навыки, поколение Альфа, интерактивные методы, ИКТ, планшетное обучение, мультимедийные презентации, культура общения.

**Abstract:** This article analyzes the role of digital pedagogical tools in forming the communicative competencies of primary school students in the modern information society. The research highlights the communication characteristics of "Generation Alpha" and the methodical aspects of their activation through interactive learning platforms. Furthermore, the scientific effectiveness of gamification and multimedia tools in the educational process is substantiated.

**Keywords:** digital pedagogy, communication skills, Generation Alpha, interactive methods, ICT, tablet-based learning, multimedia presentations, communication culture.

Hozirgi davrda ta’lim tizimi tubdan transformatsiya jarayonini boshidan kechirmoqda. Raqamli texnologiyalar dars jarayoniga shunchaki yordamchi vosita emas, balki ta’limning uzviy va ajralmas qismi sifatida kirib keldi. Raqamli pedagogika dars jarayonlarida o‘qituvchi faoliyati bilan o‘zaro uyg‘unlashishi lozim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, ya’ni "Alfa avlodi" vakillari tabiatan vizual ma’lumotlarni tezroq qabul qilishi va turli raqamli gadjetlarga bo‘lgan yuqori qiziqishi bilan ajralib turadi. Bu esa o‘z navbatida ularning muloqot madaniyatini ham zamonaviy raqamli muhitga moslashtirishni taqozo etmoqda.

Muloqotchanlik ko‘nikmasi — bu faqatgina oddiy so‘zlashish jarayoni emas, balki axborotni to‘g‘ri qabul qilish, uni tahlil qilish va jamoada fikr almashish qobiliyatidir [1.45]. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli vositalar o‘quvchilar o‘rtasidagi psixologik to‘siqlarni

bartaraf etish, dars samaradorligini oshirish va bolalarda ijtimoiy intellektni shakllantirishda hamda har tomonlama o‘shishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari psixologiyasida va tarbiyasida o‘yin faoliyati yetakchi o‘rin egallaydi. Raqamli texnologiyalar esa ushbu o‘yin faoliyatini ta’limiy maqsadlarga muvofiq yo‘naltirib bera oladi. Raqamli muhitda muloqotchanlikni rivojlantirish ijtimoiy moslashuv jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu borada bir necha strategik yo‘nalishlarni alohida ta’kidlash lozim:

An’anaviy darslarda o‘quvchi ko‘pincha passiv axborot qabul qiluvchi subyekt bo‘lib qoladi. Raqamli pedagogikada esa "Guruhli planshet" yoki "Elektron doska atrofida muhokama" kabi metodlar orqali o‘quvchilar birgalikda muammoni hal qilishga o‘rganadilar va bu darsni chuqur o‘zlashtirishga imkoniyat yaratadi. Masalan, Kahoot!, Wordwall yoki Padlet kabi onlayn hamkorlik platformalarida bolalar bir vaqtning o‘zida o‘z fikrlarini rasm, stikerlar yoki qisqa matnlar orqali ifodalashadi va bu dars sifatini oshiradi. Ushbu vizual elementlar boshqa o‘quvchilar bilan qizg‘in bahs-munozaraga, fikrlar xilma-xilligini tushunishga va muammoli vaziyatlarni hal etishda fikrlash doirasining kengayishiga xizmat qiladi [2.112].

Padlet, Toontastic 3D yoki LearningApps kabi platformalar o‘quvchining nafaqat bilim darajasini sinaydi, balki darsda sog‘lom raqobat va o‘zaro yordam muhitini yaratadi. Ushbu o‘yinlar dars mazmuni bilan uyg‘unlashib, o‘quvchiga mavzuni anglab yetish imkonini beradi. O‘yinli musobaqa yakunida natijalarni tahlil qilish, xatolarni muhokama qilish va g‘alaba strategiyasini ishlab chiqish jarayonida bolalar o‘z-o‘zidan nutqiy muloqot elementlarini (fikrni asoslash, suhbatdoshni tinglash, o‘z pozitsiyasini himoya qilish) o‘zlashtirib boradilar. Bu jarayon boladagi insoniy (psixologik) to‘siqlarni tabiiy ravishda yengib o‘tishga xizmat qiladi [3.8].

Ushbu metodik yondashuvda o‘quvchilar o‘rganilayotgan mavzu doirasida kichik slayd-shou, animatsiya yoki video-hikoya tayyorlaydilar. O‘quvchi o‘zining yaratgan raqamli mahsulotini sinf oldida taqdim etishi, unga izoh berishi va savollarga javob berishi orqali unda ommaviy nutq ko‘nikmalari rivojlanadi. Shuningdek, bu o‘quvchilarga dars yuzasidan ko‘plab yangi ma’lumotlar to‘plab, mustaqil ishlash qulayligini yaratadi.

Pedagogik tajriba va kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar tizimli ravishda qo‘llanilgan darslarda o‘quvchilarning faollik koeffitsiyenti o‘rtacha 45-50 foizga ortadi. Ayniqsa, psixologik jihatdan tortinchoq va kamgap o‘quvchilar raqamli topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘z tengdoshlari bilan muloqotga kirishishga moyil bo‘ladilar va jamiyatga integratsiyalashuvi osonlashadi.

Texnologiyalar o‘quvchilarga axborotni nafaqat eshitish, balki uni ko‘rish va his qilish (interaktivlik) imkonini beradi. Biroq, o‘qituvchi faqat texnologiya bilan cheklanib qolmasdan, fanni u bilan uyg‘unlashtirishi kerak. Bolalar mavhum tushunchalarni raqamli modellar yordamida aniqroq tushunadilar va bu ularning fikrlash doirasini o‘stiradi. Shu bilan birga, raqamli muloqot vositalari o‘quvchilarda internet tarmog‘ida o‘zaro hurmat va etika qoidalariga, muloqot madaniyatiga (netiket) rioya qilish ko‘nikmasini shakllantiradi [5.24].

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun shunchaki o‘yin vositasi emas, balki kuchli pedagogik va kommunikativ quroldir. To‘g‘ri tashkil etilgan raqamli ta’lim jarayoni bolalarda jamoaviy ishlash qobiliyatini, tanqidiy fikrlashni va o‘z fikrini erkin bayon qilishni shakllantiradi.

O‘qituvchi zamonaviy texnologiyalardan me’yorida foydalanish orqali o‘quvchini raqamli jamiyatda muvaffaqiyatli muloqot qila oladigan komil shaxs sifatida tarbiyalaydi. Kelgusida raqamli pedagogikani ta’limning barcha bo‘g‘inlariga chuqurroq integratsiya qilish o‘quv jarayonini insonparvarlashtirish va shaxslararo muloqotni boyitishga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2006.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste’dod, 2010.
3. Mavlonova R., To‘rayeva O. Pedagogika. – T.: O‘qituvchi, 2013.
4. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006.
5. Robert A. Digital Literacy and Communication in Early Childhood Education. – Oxford, 2021.